

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo`qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

RANGTASVIR
FANNING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	-	Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000	-	Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110500	-	Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

Fan/modul kodi RangT11209 RangT13409 RTas15608		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-5	ECTS - Kreditlar 22	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Rangtasvir		300	360	660
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad- rangtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi sifatida kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisini rangtasvir fani nazariyasi va amaliy ko'nikmalari bilan qurollantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish, tasviriy san'atga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iboratdir. Fanning vazifasi – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tasviriy san'at asarlari bilan chuqur tanishtirish, ularni nafosat borasidagi fikr va mulohazalarini yuksaltirish, tasviriy san'at asarlarini ko'rish va tushunish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, talabalarga, bo'lajak rassom-pedagoglarga ko'rib-kuzatib, tahlil qilib to'g'ri tasvirlash, atrof-muhitni, borliqni idrok etish, rang sezish, rangtasvir asarlarini yaratish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Reyalistik rangtasvir ishlash san'ati borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1-mavzu. Rangtasvir haqida tushuncha. Reyalistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2-3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizayl). Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Grizayl texnikasi. Axromatik va xromatik ranglarni o'rganish. Natyurmortda buyumlar shakli, hajmi, yorug'lik xususiyatlarini bir hil rangda to'g'ri aks ettirish. (Akva-rel).				

2-mavzu. Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel).

Akvarel bo'yog'i haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasi haqida asosiy tushunchalar. Chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish Xolis fonda gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda tasvirlashni kompozisiya qonuniyatlari asosida o'rganish.

3-mavzu. Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Kompozisiyani qog'oz yuzasida joylashtirishni o'rganish. Yorug' soya jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Asosiy va qo'shimcha ranglar haqida tushuncha. Sovuq tusdagi bo'yoqlar xususiyatini hisobga olib kompozisiyani aks ettirish. Natyurmortga tushayotgan yorug'lik kuchini aniqlash, ranglarni to'g'ri ifoda eta olish. Shakl, hajm va fazoviy bo'shliqni ranglar yordamida akvareldagi turli texnikalarda tasvirlashni o'rganish.

4-mavzu. Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Ranglavha haqida tushunchaga ega bo'lish va amalda tezkor rangtasvirlar bajarish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Yorug' soya jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash.

5-mavzu. Kontrast fonda turli shaklli va har hil fakturali buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Rangda jismlarning yorug' - soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Yorug' soya joylariga rang berish usullarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Kontrastlik-tushunchasi haqida nazariy va amaliy ma'lumotga ega bo'lish.

6-mavzu. Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli natyurmort ishlash.

Rangda kompozisiyaning yorug' va soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Yorug' soya jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Rangtasvirni tashkil etish, uni ifodalashda yorug'lik, shu'la va reflekslar (rang aksi)ning ahamiyatini o'rganish

7-mavzu. Sovuq tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish. (Akvarel)

Issiq va sovuq ranglar haqida tushinchaga ega bo'lish va amalda qo'llay olish. Iliq ranglar majmuiga bo'ysundirgan holda natyurmort ifodaviyligiga erishish. Muhit, yorug'lik manbaini to'g'ri aks ettirish. ishni yaxlit bir tusga bo'ysundirgan holda yakunlash

8-mavzu. Guash bo'yog'ida ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan Mikelanjeloning David xaykali ko'z bo'lagi ishtirokida natyurmortning rangtasviri

Guashda ishlash texnikasi haqida tushunchaga ega bo'lish va ishlay olish. Rang va tus munosabatlarini aniqlashni o'rganish. Guash bo'yog'ida David ko'z bo'lagini ishlash birinchi bosqichi. Natyurmortdagi ko'za, meva, matolar burmalarini ishlash bosqichi. Yorug', soya, blik, refleks, yarim soya, shaxsiy soya, tushgan soyalarini rang orqali ifodalash. Umumlashtirish. Yorug'likni hisobga olgan holda rang va tuslarini topish orqali ishni metodik izchillikda yakunlash.

9-mavzu. Dekorativ usulda natyurmort ishlashni o'rganish, har hil buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri.

Buyuk rassomlar asarlari namunalari bilan tanishish. Natyurmort qo'yilmasini qog'oz sathida to'g'ri joylashtirish. Aniq tushib turgan yorug'lik muhitini hisobga olgan holda tasvirlash. Buyumlar sirtida atrofdagi ranglarning aks etishini dekorativ usulda amalga oshirish, hajm, yaxlitlik masalalarini hal etish. Murakkab fonda natyurmort ishlash, rang uyg'unligi (kolorit) qonuniyatlarini o'rganish.

10-mavzu. Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish. (Hayvonot bog'ida).

Hayvonlar va parrandalarning turli holatdagi ranglavhalarini bajarishni o'rganish. Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini to'g'ri chizish va rang bilan hajmlilikni ta'minlagan holda aks ettirish. Hayvon va qushlarning anatomiyasi. Hayvonlarning xarakat plastikasini tasvirlashni o'rganish, oldingi va orqa oyoqlari suyaklarining tuzilishi, birikishi va dinamikasi.

11-mavzu. Ma'lum ranglar gammasida (koloritda) naqshli gips rozetka bilan qo'yilgan natyurmortni ishlash.

Shaklni konstruktiv tahlil qilish, kompozisiyani to'g'ri joylashtirish. Gips rozetka naqshlarini to'g'ri joylashtirish. rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Yaxlit bir butunlikda yakunlash.

12-mavzu. Yorug'likka qarshi qo'yilgan mavzuli murakkab natyurmort kompozisiyasini ishlash. "San'at atributlari" (Gips bosh yoki niqob namunasi bilan).

Kompozisiya markazi, simmetriya va assimetriya haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qog'oz yuzasida konstruktiv qurilishini joylashtirish. Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlarini bir biriga nisbati, hajmi, xossasiga, materialiga qarab buyumning o'ziga xos jihatlarini rang orqali ko'rsatish Kompozisiyani to'g'ri joylashtirish, fazoviylikka e'tibor berish. Yorug' va soya munosabatlari, ranglarning o'zaro bog'liqligi va qarama-qarshiligi xususiyatlarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash, umumlashtirish, yakunlash.

13-mavzu. Interer ko'rinishini tasvirlash

(Ochiq eshik yoki derazadan ko'rinib turgan natyurmort bo 'lagi tasviri). Kompozisiyani to'g'ri joylashtirish, perspektivani ifodalashga e'tibor berish. Rangda kompozisiyaning yorug' va soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish. Chiziqli va fazoviy perspektiva qonuniyatlarini o'rganish. Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash yakunlash

14-mavzu. Oq fonda har hil rangli mevalardan tuzilgan natyurmort ishlash.

Buyuk rassomlar asarlari namunalari bilan tanishish. Natyurmort qo'yilmasini qog'oz sathida to'g'ri joylashtirish, aniq tushib turgan yorug'lik muhitini hisobga olgan holda tasvirlash. Buyumlar sirtida atrofdagi ranglarning aks etishi, hajm, yaxlitlik masalalarini hal etish. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash

15-mavzu. Rangi bir hil, turli tUSDagi buyumlardan tuzilgan natyurmort kompozitsiyasini kontrast fonda ishlash.

Rang va tus munosabatlarini aniqlashni o'rganish. Kompozisiya markazi, simmetriya va assimetriya haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qog'oz yuzasida konstruktiv qurilishini, joylashtirish Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlarini bir biriga nisbati, hajmi, xossasiga, materialiga qarab buyumning o'ziga xos jihatlarini rang orqali ko'rsatish Kompozisiyani to'g'ri joylashtirish, konstruktiv qurish Rangda jismlarning yorug' va soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Yorug'likni hisobga olgan holda rang va tuslarini topish, ishni metodik izchillikda yakunlash.

16-mavzu. Murakkab bo'lmagan natyurmort kompozitsiyasini moybo'yoqda ishlash. (Grizayl).

Grizayl texnikasi. Axromatik va xromatik ranglarni o'rganish. Rang doirasi. Mato yoki kartonda moybo'yoqda ishlash texnikasini o'rganish. Ishni bir hil rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash Natyurmortda buyumlar shakli. hajmi, yorug'lik xususiyatlarini bir hil rangda to'g'ri aks ettirish. Yorug' soya

jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish Kompozisiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

17-mavzu. Iliq tuslanishga ega bo'lgan kontrast rangli buyumlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda ishlash. (Moybo'yoq).

Rassom palitrasi. Rang aralashtirish texnologiyasi. Kolorit, iliq va sovuq ranglar haqida tushunchaga ega bo'lish. Rang iqlimi. Iliq ranglar majmuiga bo'ysundirgan holda natyurmort ifodaviyligiga erishish. Muhit, yorug'lik manbaini to'g'ri aks ettirish. ishni yaxlit bir tusga bo'ysundirgan holda yakunlash.

18-mavzu. Sovuq tuslanishga ega bo'lgan murakkab natyurmort kompozisiyasi ishlash.

Asosiy va qo'shimcha ranglar haqida tushunchaga ega bo'lish. Sovuq tusdagi bo'yoqlar xususiyatini hisobga olib kompozisiyani aks ettirish. Qo'yilmaga tushayotgan yorug'lik kuchini aniqlash, ranglarni to'g'ri ifodalash. Natyurmortni matoga to'g'ri joylashtirish va rang bilan hajmlilikni ta'minlagan holda aks ettirish. Yorug'likni hisobga olgan holda rangini topish. ranglar orqali moybo'yoqda ishni metodik izchillikda yakunlash

19-mavzu. Ranglari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan buyumlardan tuzilgan murakkab mavzuli natyurmort. (Yorug'likka qarshi qo'yilgan) Yorug'lik muhitida buyumlarning hajmi va rangini ko'rsatish. Buyumlarning hajmini aniqlash, unga rangda ishlov berish. Rangtasvirda fazoviy holatlarni aks ettirish. Natyurmortni matoga to'g'ri joylashtirish va rang bilan hajmlilikni ta'minlagan holda aks ettirish. Yorug'likni hisobga olgan holda rangini topish. ranglar orqali moybo'yoqda ishni metodik izchillikda yakunlash.

20-mavzu. To'q fonda qiyofachi portretini bir hil rangda ishlash (Grizayl).

Axromatik ranglar haqida tushuncha. Bosh tasviri va fondagi rang va tus o'zgarishlari, och-to'qlik darajalarini to'g'ri aks ettirish. Yevropa Uyg'onish davri rassomlarining uch qatlamli rangtasvir ishlash texnikasini o'rganish. Muhit, yorug'lik manbaini to'g'ri aks ettirish. ishni yaxlit bir tusga bo'ysundirgan holda yakunlash.

21-mavzu. Rangli fonda qiyofachi portreti ranglavhasi cheklangan ranglarda ishlash.

Inson yuz tuzilishi xususiyatlari, rang-tus munosabatlarini o'rganish. Qiyofachini o'rganish, qisqa muddatli ranglavhalarni bajarish va matoga konstruktiv qurilishi bo'yicha joylashtirish. Nisbatlarni aniqlash va modelni konstruktiv qurish. Yorug'-soya qonunlariga amal qilgan holda vazifani ranglash. Bosh nisbatlarini to'g'ri ifodalab tasvirlash

22-mavzu. Aniq anatomik tuzilishga ega bo'lgan, xarakterli ayol yoki erkak qiyofachi portretini yelka qismi bilan ishlash.

Yorug'lik xususiyatlarini e'tiborga olib. mayda tafsilotlarsiz, yaxlit katta shaklning rang va tus munosabatlarini to'g'ri aks ettirgan holda hajmli qilib ifodalash. Konstruktiv qurilish orqali inson tana a'zolari nisbatlarini chiziqli konstruktiv o'rganish. Kuzatib holat xarakterini tez ilg'ab tasvirlash malakalarini o'stirish. Inson qiyofasini rangtasvirda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish

23-mavzu. Milliy mato fonida ayol portreti ranglavhasini qo'li bilan ishlash,

Zamonaviy rangtasvir texnikasida (alya-prima) odam yuzi, qo'li. kiyimini ifoda etishni o'rganish. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Perspektiva, plastik anatomiya, yorug' soya munosabatlari, bir, milliy mato fonidagi figuradan tashkil etilgan kompozisiyaning o'ziga xosligi va tasvirlash qonun qoidalari. Odam shaklini tasvirlashda konstruktiv tuzilish, plastik holat, hajm, kompozitsiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarini o'rgatish. Naturaning xarakterli xususiyatlarini ochib berish. Qiyofani tasvirlashda konstruktiv anatomik tuzilishni hisobga olib uning holatini aniqlash. Rangda kompozitsiya muammolarini hal etish.

24-mavzu. Beligacha yalang'och holda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlash.

Inson gavdasi anatomik tuzilishi. Portretni mazmunan boy.chuqur g'oyaviy voqeaband mavzular asosida tasvirlash yo'llarini o'rganish. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Perspektiva qonuniyatlari, odam anatomiyasi, yorug' soya munosabatlari, figuraning o'ziga xos jihatlari va tasvirlash qonun qoidalari. Odam tanasini tasvirlashda konstruktiv tuzilish, plastik holat, hajm, kompozitsiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarini o'rgatish. Naturaning xarakterli xususiyatlarini ochib berish. Qiyofani tasvirlashda yuz tuzilishidagi nisbatlar va shakllar, ularni tushlash yo'llarini o'rgatish.

25-mavzu. Tik turgan holatdagi inson qomatining murakkab holatdagi tasvirini ishlash

Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Perspektiv qisqarish, inson anatomiyasi, yorug' soya munosabatlari, kiyimdagi burmalar, kompozisiyalarning o'ziga xosligi va tasvirlash qonun qoidalari. Odam shaklini tasvirlashda konstruktiv tuzilish, hajm, kompozitsiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarini o'rgatish. Naturaning xarakterli xususiyatlarini ochib berish. Qiyofani tasvirlashda konstruktiv anatomik tuzilishni hisobga olib uning holatini aniqlash. O'quv grafik vazifa bajarishda inson yuz tuzilishi xususiyatlarini ochib berish

26-mavzu. Interyerda ikki va undan ortiq kishi ishtrokida murakkab kompozisiya ishlash (Tarixiy mavzuda kompozisiya tashkil etish)

Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Perspektiva, plastik anatomiya, yorug' soya munosabatlari, bir, ikki va ko'p figuralardan tashkil etilgan kompozitsiyalarning o'ziga xosligi va tasvirlash qonun qoidalari. Odam shaklini tasvirlashda konstruktiv tuzilish, plastik holat, hajm, kompozisiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarini o'rgatish Odam gavdasini metodik bosqichlarda to'g'ri tasvirlash. Naturaning xarakterli xususiyatlarini ochib berish. Qiyofani tasvirlashda konstruktiv anatomik tuzilishni hisobga olib uning holatini aniqlash. O'quv grafik vazifa bajarishda inson yuz tuzilishi xususiyatlarini ochib berish. Odam gavdasining tuzilishi va mushaklarining konstruktiv anatomik jihatlarini aniqlab ranglash.

Amaliy mashg'ulotlar mahsus dastgohlar va loybaratoriya buyumlari: geometrik jismlar (Kub, shar, silindr, prizma, konus), uy-ro'zg'or buyumlari (ko'za, xum, choynak, piyola, lagan, samovar va hokazolar.), gips rozetkalar, gips bosh namunalari, gips bosh, inson bosh suyagi kabi jihozlar bilan jihozlangan o'quv ustaxonalarda o'tkazilishi zarur. Yuqori kurs uchun qiyofachi taklif etilishi yoki haykallar bilan jihozlanishi kerak. Shuningdek multimedia qurilmalari bilan jihozlangan bir akademik guruhga bir yoki ikki professor-o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi har bir talabaga individual yondoshib dars o'tish maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Geometrik shakllardan natyurmort grizaylda
2. Gips naqshli rozetka ishtrokida natyurmortning rangtasviri (gul bargi va ko'za, mevalardan iborat natyurmort kompozitsiyasi)
3. Murakkab holatdagi turli mato burmalari bilan gullar ishtirokida natyurmort
4. Uy-ro'zg'or buyumlari va sabzavotlardan tuzilgan natyurmortning rangtasviri
5. Samovar, choynak, piyola va mevalardan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.
6. Hayvon va parrandalarning ranglavhalari
7. Xaykaltarosh Mikelanjeloning David xaykali boshi bo'laklari bilan natyurmort
8. Inson boshini kesib ishlash usulida ranglavha (etyud) mashq qilish
9. Oq fonda gullar va meva-sabzavotlarning qisqa muddatli ranglavhasini bajarish.

	10. Aniq xarakterga ega bo'lgan bosh namunasining ranglavhasi 11. Inson qomatidan ranglavhalar bajarish 12. O'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan inson portreti ranglavhasi. 13. Keksa inson boshining murakkab holatdagi portreti ranglavhasi. 14. Yosh bola portreti rangtasviri. 15. Mening zamondoshim portreti ranglavha. 16. Avtoportret. 17. O'tirgan holatdagi inson qomati kompozitsiyasini tasvirlash. 18. Qishloq manzarasi. 19. Ikki yoki uch kishi ishtirokida kompozitsiya. 20. Bozorlar ranglavhasi. 21. Tog' manzarasi. 22. Mavzuli murakkab natyurmort. Talaba mustaqil ta'limni bajarish uchun darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganishi; tarqatma materiallar bo'yicha amaliy ishlar bajarishni o'rganish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; talabaning o'quv-ijodiy ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan mavzularini chuqur o'rganish; tavsiya etiladi. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha talabalar A3 formatda, qog'oz, mato, akvarel, moybo'yoq, guash bo'yoqlaridan foydalanib vazifani ranglavhalarini topshiradi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: «Rangtasvir» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba; – O'quvchilarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni va xususiyatlari; – tasviriy san'atga o'rgatishning didaktik tamoyillari; – tasviriy san'atga o'qitish jarayonida rangtasvirning ishlash mazmuni, metod va texnologiyalari; – milliy va jahon tasviriy san'at tarixiga oid ma'lumotni bilish, tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, rangtasvir qonuniyatlari, portret xarakteristikasini o'rganish. – rangtasvirni o'qitish jarayonida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash; – oddiy geometrik shakllardan boshlab insonning qomatini rangtasvirda tasvirlay olishgacha; – tasviriy san'at asarlarini yaratishda ranglavhaning ahamiyati – mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish; – maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatga o'rgatish

	– maktablarda tasviriyy san’at darslari uchun ishlanmalar tayyorlashni; – yaxshi o’zlashtiruvchi va iqtidorli o’quvchilar bilan individual darslar olib borish; – tasviriyy faoliyatga o’rgatish jarayonini taxlil etish; – o’quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish to’g’risida malakalariga ega bo’lishi kerak.
4.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg’ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha amaliy ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir Darslik. Toshkent. “Innovatsiya-ziyo”, 2019 2. Xalilov R. :Jivopis Izdatelstvo «Navruz» 2013 3. Abduraxmonov G’.M Kompozisiya asoslari «Iqtisod-moliya»,Toshkent, 2008. Qo’shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so’zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11 5. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O’zbekiston”, 2017 yil 6. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.Toshkent, “O ‘zbekiston”, 2017 yil 7. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). Toshkent, 2002. TDPU 8. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). O’quv qo’llanma, Toshkent., 2003. TDPU

	9. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir” O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2005. “Bilim” 10. Sultonov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash) metodik qo‘llanma TDPU rizografida-2014 11. S.Abdirasilov, S.Mahkamova, N.Isaxojieva Tasviriy san’at to‘garagi Toshkent SHARQ 2012 12. S.Abdirasilov, S.Mahkamova Iste’dod Toshkent metodik qo‘llanma TDPU rizografida 2014 13. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir “Bilim” O‘MKHTM 2005 14. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014. 15. B.Baratboyev, A.Amanullayev “Rangtasvir” darslik Toshkent-2020 16. I.I.Mamatov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanma Toshkent Tilsim-2023 17. Mamatov “Rangtasvir” darslik Farg‘ona nashr -2025 Axborot manbaalari 18. www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi TDPU portali 19. www.ZiyoNet.Uz – O‘zbekiston Ziyonet kutubxonasi bazasi 20. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modulg’ uchun mashullar: R.Mamatqulov - QDPI “Tasviriy sanhat va muhandislik grafikasi” kafedrası stajyor o‘qituvchisi U.Sharaboev - QDPI “Tasviriy sanhat va muhandislik grafikasi” kafedrası dotsenti A.Abdullayev – QDPI “Tasviriy sanhat va muhandislik grafikasi” kafedrası dotsenti I.I.Mamatov– QDPI “Tasviriy sanhat va muhandislik grafikasi” kafedrası o‘qituvchisi.
9	Taqrizchilar: Ch.Shakirova –ADU, Pedagogika fanlar nomzodi U.Boltaboyeva - QDPI “Tasviriy sanhat va muhandislik grafikasi” kafedrası mudiri.